PEDAGOGNING SHAXSIY KOMPENTENSIYASIDA XOLISLIK VA ADOLATLILIK TAMOYILLARINING AHAMIYATI

Zakirova Durdona Axmadjonovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 2- kurs talabasi

Chirchiq, O'zbekiston

Elektron pochta: durdonazakirova1992@gmail.com telefon: +99893 5706992

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy pedagogikada shaxsiy kompetensiyaning o'rni, xususan, xolislik va adolatlilik tamoyillarining ilmiy-nazariy asoslari tadqiq etiladi. Maqolada mazkur tushunchalar nafaqat zamonaviy psixologik balki, Sharq mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy va Alisher Navoiyning adolat haqidagi fundamental fikrlari bilan bog'langan holda tahlil qilinadi. Forobiyning jamiyatda adolatli taqsimot nazariyasi hamda Navoiyning komil inson axloqiga doir qarashlari asosida pedagogning shaxsiy kompentensiyasini shakllantirish masalalari yoritiladi. Maqola o'qituvchi faoliyatida o'quvchilarni xolis baholash, ularga adolatli munosabatda bo'lish, o'quvchilarda adolat hissini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha zamonaviy talablarga javob beruvchi tavsiyalarni o'z ichiga oladi. Pedadogik kompentensiya doirasida o'qituvchi shaxsiy kompentensiyasining asosiy tamoyillari - xolislik va adolatlilik , uning o'quvchi hayotidagi tutgan o'rni haqida so'z yuritamiz.

Kalit so'zlar: kompetensiya, shaxsiy kompetensiya, xolislik, adolat, shaxs, zamonaviy ta'lim, ta'lim modernizatsiyasi.

Аннотация. В данной статье исследуется роль личной компетенции в современной педагогике, в частности, научно-теоретические основы принципов объективности и справедливости. Эти понятия анализируются не только с точки зрения современной психологии, но и в сочетании с фундаментальными идеями о справедливости великих восточных мыслителей, таких как Абу Наср аль-Фараби и Алишер Навои. Вопросы формирования личной компетенции педагога освещаются на основе теории справедливого распределения в обществе аль-Фараби и взглядов Навои о морали «совершенного человека». Статья содержит рекомендации, отвечающие современным требованиям по объективному оцениванию, справедливому отношению к учащимся, а также формированию и развитию у них чувства справедливости. В рамках педагогической компетенции рассматриваются основные принципы личной компетенции учителя - объективность и справедливость, а также их роль в жизни ученика.

Ключевые слова: компетенция, личностная компетенция, объективность, справедливость, личность, современное образование, модернизация образования.

Abstract. This article explores the role of personal competence in modern pedagogy, specifically examining the scientific and theoretical foundations of the principles of objectivity and fairness. These concepts are analyzed not only through the lens of modern psychology but also in connection with the fundamental ideas on justice shared by great Eastern thinkers such as Abu Nasr Al-Farabi and Alisher Navoi. The issues of developing a pedagogue's personal competence are highlighted based on Al-Farabi's theory of just distribution in society and Navoi's views on the morality of the "Perfect Man" (Kamil Insan). The article includes recommendations that meet contemporary requirements for objective assessment, fair treatment of students, and the formation and development of a sense of justice in learners. Within the framework of pedagogical competence, we discuss the core principles of a teacher's personal competence—objectivity and fairness—and their significant role in a student's life.

Keywords: competence, personal competence, objectivity, justice, personality, modern education, education modernization.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim modernizatsiyasi sharoitida pedagog endi nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchining ijodkorligi va mustaqil fikrlashini shakllantiruvchi yetakchiga aylandi. Shu sababli, har bir pedagogdan pedagogik kompetensiyaga ega bo‘lish kasbiy majburiyat sifatida talab qilinmoqda. Avvalo kompetensiya va shaxsiy kompetensiya atamalariga ta'rif bersam.

Kompetensiya inglizcha “competence” so‘zidan olingan bo‘lib, lug‘aviy jihatdan bevosita “qobiliyat” ma'nosini ifodalaydi. Mazmunan esa, kasbiy faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olishni yoritishga xizmat qiladi. Shaxsiy kompetensiya - bu nafaqat kasbiy bilimlar to‘plami, balki insonning ichki qadriyatlari, axloqiy mezonlarini, xatti- harakatlarini boshqarish va boshqalar bilan samarali munosabatga kirishish qobiliyatidir. Shaxsiy kompetensiya har qanday professional faoliyatning poydevori hisoblanadi. Shaxsiy kompetensiyasi yuqori rivojlangan pedagog - bu shunchaki dars o‘tuvchi shaxs emas, balki o‘quvchining orzu - istaklarini maqsadga aylantiruvchi va shu maqsad sari yo‘l ko‘rsatuvchi “xarita”dir.

ADABIYOT TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Har bir o‘quvchining o‘ziga xos orzu-istaklari bo‘ladi. Pedagogning kompetentligi ana shu mavhum istakni aniq, o‘lchanadigan va erishsa bo‘ladigan maqsadga aylantirishda ko‘rinadi. U o‘quvchining ichki salohiyatini to‘g‘ri yo‘naltira oladi. Yo‘l ko‘rsatuvchi xarita manzilga yetkazadi, lekin, yo‘lni bosib o‘tish sayohatchining zimmasida bo‘ladi. Shaxsiy kompetensiyaga ega pedagog ham xuddi shunday. U o‘quvchi uchun to‘g‘ri yo‘nalishni ko‘rsatib harakatga undaydi, o‘quvchini majburlamaydi, balki unga yo‘l ochadi.

Shaxsiy kompetensiyasi past pedagog o‘quvchilar uchun “ma'naviy xarita” emas, balki “to‘siq” yoki “adashgan yo‘l” bo‘lib qolishi mumkin. Bunday pedagoglar ko‘pincha darsni zerikarli o‘tadilar, o‘quvchilarni qiziqtira olmaydilar. Natijada, o‘quvchilarda fanga nisbatan qiziqish so‘nadi. Shaxsiy kompetensiyasi past o‘qituvchilar ko‘pincha o‘zlarining kamchiliklarini qattiqqo‘llik, baqirish yoki jazo bilan yashirishga urinadilar. Bu o‘quvchilarda maktabga nisbatan

qo‘rquvni shakllantiradi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilar orasida turli noqulayliklarni shakllanishiga sabab bo‘ladi. Pedagogning o‘zini tuta bilmasligi, muloqot madaniyatining pastligi o‘quvchilar uchun noto‘g‘ri namuna bo‘ladi. Ular kattalardan hurmat, adolat va ochiqlikni emas, balki g‘azab, yolg‘on va tarafkashlikni o‘rganishi mumkin. Bunday o‘qituvchi o‘quvchining istaklarini maqsadga aylantirish o‘rniga, ularning orzularini masxara qilishi yoki inkor etishi mumkin.

MUHOKAMA

Maqolaning asosiy mohiyati va mazmunini ochib berish maqsadida xolislik va adolatlilik tushunchalariga ta’rif berib, bu tamoyillarni shaxsiy kompentensiyada tutgan o‘rni va ta’lim jarayonidagi ahamiyati haqida aytib o‘tishni lozim topdim. Xolis - so‘zi arab tilida - toza, sof, qorishmasiz, samimiy, bo‘sh, xoli degan ma’nolarni bildiradi va quyidagicha ta’riflanadi:

- voqelikka haqqoniy nazar bilan qaraydigan, obyektiv baholaydigan;
- beg‘araz , samimiy, ta’masiz.

Xolislik - hammaga bir xil nazarda bo‘lish, biror manfaat yuzasidan, biror voqeaga nohaqlarcha yon bosmaydigan, voqea-hodisaga adolat yuzasidan samimiy, ta’masiz yondashish. Adolat - so‘zi arab tilida - odillik degan ma’noni ifodalaydi va quyidagicha ta’riflanadi:

- odilona ish tutish,odillik;
- adolatga , haqqoniylikka asoslangan

Adolatlilik - adolat bilan ish tutish xususiyati, kishining o‘z faoliyatida va munosabatlarida haqiqatga, qonun-qoidalarga tayanishi hamda xolis bo‘lishi holatidir.

Xolislik va adolatlilik tushunchalari jamiyat taraqqiyoti va insoniy munosabatlarning ma’naviy poydevori hisoblanadi. Garchi ular alohida ma’nolarga ega bo‘lsa-da, amaliyotda bir-birini taqozo etuvchi yaxlit tizimni tashkil etadi. Xolislik - bu voqea-hodisalarga shaxsiy manfaat, his-tuyg‘u yoki g‘arazli maqsadlarsiz, faqat faktlar asosida yondashishdir. U adolat binosining asosi bo‘lib xizmat qiladi. Agar qaror qabul qiluvchi shaxs xolis bo‘lmasa, uning xulosalarida albatta tarafkashlik yuzaga keladi, bu esa adolat mezonlarining buzilishiga olib keladi. Adolat esa xolis yondashuvning yakuniy natijasidir. Adolat - har bir haqdorga o‘z haqqini berish, qonun va axloq normalari oldida barchaning tengligini ta’minlashdir. Xolislikni “yo‘l” deb tasavvur qilsak, adolat shu yo‘l orqali erishiladigan “manzil” dir. Xolislik bo‘lmagan joyda adolat o‘rnini zulm va tengsizlik egallaydi. Odamlar o‘rtasidagi nizolarni hal qilishda xolislik taraflarning ishonchini qozonadi, adolat esa yakuniy yechimni ta’minlaydi.

Bola maktabda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining bilim olish haqidagi talabiga duch keladi va bu muhitga asta- sekin moslashib boradi. U o‘zi qiziqqan fani va o‘sha fan o‘qituvchisini yaxshi ko‘rib qoladi. Ko‘proq o‘sha fanga va o‘qituvchisiga e’tiborli bo‘ladi. U o‘zi qiziqmagan darsga e’tibor qilmaydi, o‘z hayollariga berilib darsdan chalg‘iydi. Aksariyat xollarda o‘qituvchi bolani darsda faol ishtirok etmagani uchun koyib beradi. O‘qituvchi bu xolni boshqa bolalarga namuna bo‘lsin deb darsga quloq solmay rasm chizib o‘tirgani uchun yoki qog‘ozdan nimadir yasab o‘tirgani uchun tengdoshlarini yonida uning shaxsiyatini kamsitadi. Bu hol ma’naviyatchining “tarbiyaviy soati”gacha yetib boradi, bola hammaning oldida izza qilinadi. U o‘sha xolatda umri davomida hechqachon xis qilmagan notanish g‘alati tuyg‘ularni xis qiladi.

Bola tanaffusda tengdoshlari bilan birga o‘ynaydi va bo‘lgan voqeani unutib yuboradi. Vaqtlar o‘tib, bola ulg‘ayib o‘smirlik davriga o‘tadi. O‘smirlik davrida bu unutib yuborish boshqacha muammo ko‘rinishida yuzaga chiqishi mumkin. Chunki, bola u vaqtda kichkina edi, ustoziga javob bera olamagan va javob qaytarishga qo‘rqqan edi.

Yuqoridagi holat ko‘p xollarda shaxsiy kompetensiyasi past o‘qituvchilar tomonidan yo‘l qo‘yiladigan kamchilik bo‘lib, bolaga nisbatan qilingan adolatsizlikning bir ko‘rinishidir.

Quyida o‘qituvchisi tomonidan adolatsizlikka uchragan buyuk shaxslarning o‘tmishi haqida qisqacha tanishamiz.

Buyuk ixtirochi Tomas Edisonning o‘qituvchisi uni “aqli zaif” deb hisoblagan va uning o‘qishini davom ettirishidan ma’no yo‘qligini aytib, maktabdan haydashga qaror qilgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, o‘qituvchi Edisonga onasi uchun xat beradi. Xatda Edisonning o‘qiy olmasligi yozilgan bo‘lsa-da, onasi buni o‘g‘liga “Sening o‘g‘ling daho, bizda uni o‘qitishga qodir o‘qituvchilar yo‘q” deb o‘qib beradi. Ushbu adolatsizlikdan so‘ng, onasi Nensi Edison o‘g‘lini uyda o‘zi o‘qitishni boshlaydi va uning ixtirochilik qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Edison keyinchalik o‘z kundaligida: “Tomas Edison aqli zaif bola edi, lekin qahramon onasi tufayli asrning dahosiga aylandi”, deb yozgan [5].

Myunxendagi Luitpold gimnaziyasida yunon tili o‘qituvchisi Eynshteynga qarab: “Sendan hech qachon tayinli bir odam chiqmaydi” deb aytgan. Sinf rahbari unga maktabni tark etishni taklif qiladi. Eynshteyn: “Men hech qanday yomon ish qilmadim-ku?” deb so‘raganida, o‘qituvchi: “Sening sinfdagi borligingni o‘zi o‘quvchilar oldida hurmatimni yo‘qotadi” deb javob bergan.

Ushbu buyuk ixtirochi olimlarni o‘z o‘qituvchilari noma’lum qobiliyatlarini sezib mana shu buyuklik sari undaganlarida ular tarixda o‘z nomlarini “Buyuk dahoni taniy olmagan pedagog” nomi o‘rniga “sharafli ustoz” nomini oltin harflar bilan bitgan bo‘lar edilar. Buyuk daholar esa hayotlarining oxirigacha o‘z kundaliklari-yu, qo‘l yozmalarida ustozlarini e’tirof etib charchamagan bo‘larmidilar?

Turk pedagogi Adem Guneshning [4] adolat haqidagi nazariyasini tahlil qilsak: “Tenglik bolalarda o‘zaro kelishmovchilik va jizzakilikni oshirishi mumkin, adolat esa har bir bolaga o‘z haqqini berishni anglatadi.” - deb ta’kidlaydi. Bolalar o‘zlarining shaxsiyatiga hurmat va ehtiyojlariga mos keladigan adolatli munosabatni talab qilishadi. Faqat adolatli yondashuv orqaligina bolalar o‘zlarini qadrli his qilishadi va ulardagi jizzakilik, norozilik kamayadi.

Buyuk mutaffakkir Alisher Navoiy va Ulug‘ mutaffakir Abu Nasr Farobiyning xolislik va adolat haqidagi fikrlariga e’tibor qilsak. Alisher Navoiyning asarlarida adolat - davlatning ustuni, xalqning esa najotkori sifatida ta’riflanadi. Navoiyning qarashlariga ko‘ra, adolatli inson o‘z manfaatidan kechib, haqiqat tarafida tura oladi. Bugungi kun pedagogi uchun ushbu meros o‘quvchilar bilan muloqotda xolislikni saqlash va har bir ishda haqqoniyatni ustuvor qo‘yishda dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi.

Abu Nasr Farobiyning adolat haqidagi fikrlari uning ijtimoiy-siyosiy falsafasining markaziy qismini tashkil etadi. Uning “Fozil odamlar shahri” asarida adolatni jamiyat barqarorligi va insonlarning umumiy baxt-saodatga erishishi uchun asosiy tamoyil ekanligini

aytib o‘tgan. Farobiyning fikricha, xolislik bu aqlning his-tuyg‘ular ustidan hukmronligidir. Faqat aqlga tayanib ish ko‘radigan insongina haqiqiy adolatni o‘rnata oladi.

NATIJA

Shu o‘rinda maktab o‘qituvchilariga bir savol bilan yuzlanaman. Sinfingizda tinimsiz savol beradigan, darsda shovqin qiladigan bolani tartibsiz deb hisoblaysizmi yoki izlanuvchan? Buni aniqlash uchun shovqin ichidan musiqani eshitishni bilmoq kerak. Sinfda dars vaqtida rasm chizib o‘tirgan bola - balki bo‘lajak mashxur dizaynerdir. O‘qituvchining adolatliligi o‘sha bolaning qobiliyatini darsga qanday bog‘lashni topishida namoyon bo‘ladi. Adolat bu hamma bolani bir xil qolipga solish emas, balki har bir bolaga o‘z qolipini yaratishiga ruxsat berishdir. Bola xato qilsa, yoki darsni buzsa darrov hukm chiqarmang. “Nega u bunday qilyapti?” deb o‘zingizga savol bering. U nimagadir qiziqadi va shu qiziqish uni darsdan o‘z qiziqishlari tomon chorlaydi. Agar sizning dars jarayoningizda shunday xolat bo‘lgan bo‘lsa siz o‘quvchingizni rasm chizishiga ruxsat bergan bo‘lsangiz siz juda adolatli pedagogsiz!

Siz bolani koyib bersangiz yoki jazolasangiz bitta daho iqtidorini so‘ndirasiz. Aksincha, “senga ishonaman” degan so‘zingiz esa dunyoni yorituvchi yangi ixtirochilarni kashf qilishi mumkin. Tanlov - sizning adolatligingizda!

XULOSA

Yuqoridagi fikr va dalillarga tayanib shuni ta’kidlash kerakki, shaxsiy kompetensiya tushunchasi faqatgina kasbiy mahorat yoki intellektual salohiyat bilan cheklanib qolmaydi. Haqiqiy va barkamol kompetensiya Alisher Navoiy va Abu Nasr Forobiy ta'kidlaganidek, xolis aqlga tayanadi va adolat tamoyillari asosida shakllanadi. Xolislik va adolatlilik egizak tushunchalardir. Xolislik adolatning ko‘zi, adolat esa xolislikning amalga oshgan shaklidir. Ushbu tamoyillar ustuvor bo‘lgan jamiyatda har doim tinchlik, barqarorlik va rivojlanish bo‘ladi.

Har birimiz o‘z shaxsiy va kasbiy hayotimizda ongli ravishda xolis va adolatli bo‘lishga intilishimiz lozim. Bu bilan bo‘lajak buyuk daholarni kashf qilishga o‘z xissamizni qo‘shgan bo‘lamiz.

Bilimni hamma berishi mumkin, lekin mehr va adolatni uyg‘unlashtirish hamma pedagogning ham qo‘lidan kelmaydi. O‘quvchilar yillar o‘tib o‘tilgan mavzularni unutishlari mumkin, lekin ustozining ularga ko‘rsatgan adolatli munosabatini hech qachon unutmaydilar!

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Yangi asr avlodi, 2016. – 160 b.
2. Adem Güneş’ten o‘rganganlarim: video matni. – 2021. – Elektron resurs.
3. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. – 128 b.
4. Gunesh A. Yosh bola demang ularni: “Yangi asr avlodi”. – T.: 2021.
5. Pedagogik deontologiya va kompetentlik. – Termiz: Termiz davlat universiteti nashriyoti, 2021.